

SHAYBONIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI VA BOSHQARUV TARTIBI HAQIDA

Furqat Eshboyevich Toshboyev

tarix fanlari doktori (DSc), professor

Sarvinoz Isomiddinova

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida shakllangan davlat boshqaruv tizimi va siyosiy jarayonlar tahlil qilinadi. Maqolada Muhammad Shayboniyxonning hokimiyat tepasiga kelishi, temuriylardan keyingi siyosiy vaziyat hamda markazlashgan davlat barpo etilishining asosiy omillari yoritilgan. Shuningdek, shayboniylar davrida amal qilgan mansablar tizimi, saroy va viloyat boshqaruvi, diniy ulamolar hamda xo‘jalarning siyosiy hayotdagi ta’siri manbalar asosida ko‘rib chiqilgan. Maqola Shayboniylar davri o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishda ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Shayboniyxon, dargoh, shayboniylar sulolasi, davlat boshqaruvi, Ubaydullaxon, davlatchilik, Kuchkinjixon, Movarounnahr, mansablar tizimi, Abdullaxon, diniy ulamolar.

O‘zbek davlatchiligi tarixi qadim ildizlarga ega bo‘lib, unda iz qoldirgan buyuk sulolar xorazmshohlar, eftaliylar, somoniylar, anushteginiylar, temuriylar, shayboniylar kabi sulola nomlari alohida ahamiyatga ega. Ular orasida yetakchi siyosiy kuch sifatida faoliyat ko‘rsatgan shayboniylar davri tarixini o‘rganish ham dolzarb hisoblanadi.

Shayboniylar davri tarixi ya’ni Shayboniyxonning harbiy yurishlari, shaharlarning bosib olinishi, davlat boshqaruvi va mamlakat jtimoiy-siyosiy hayotiga oid muhim ma’lumotlar Muhammad Solih, Kamoliddin Banoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Haydar, Fazlulloh ibn Ro‘zbehxon, Hofiz Tanish Buxoriy va boshqa mahalliy tarixchilarning asarlarida keng yoritilgan.

Ushbu tarixchilarning asarlaridagi muhim masalalar tarixchi olimlarimizdan B.Ahmedov tomonidan maxsus o'rganilgan. B.Ahmedovning yozishicha, "XV asr boshlarida qabilalarning bir qismi (o'zbeklar; sharq mualliflari iboralari bo'yicha — «o'zbekon») Shayboniyxon atrofida birlashib, Qipchoq dashtidan O'rta Osiyoga bostirib kirdilar va hozirgi O'zbekiston hududida turg'un bo'lib qoldilar. Shu paytdan boshlab «o'zbek» iborasi etnik ma'no kasb etdi va bu hududdagi turkiy aholi «o'zbek» nomini qabul qildi. Shu erda ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ko'chmanchilar avval qaysi qabilaga mansub bo'lsalar, o'sha nomni saqlab qolganlar va to XX asrgacha ajdodiy-qabilaviy bo'linishlarni saqlab qolganlar"¹. 1500-1501 yillarda yurtimizda hokimiyat almashinuvi yuz berdi, u mamlakt boshqaruvi temuriylardan shayboniylar qo'liga o'tdi, lekin el-yurt o'z joyida qoldi, milliy davlatchiligimiz an'analari davom etdi.

Ko'plab manbalarda XV asrning 20-yillarida Qipchoq Dashtining sharqiy yerlarida tashkil topgan va 40 yildan ziyodroq yashagan Abulxayrxon (1428-1468) davlatini va Turkiston hamda Movarounnahrda tashkil topgan Muhammad Shayboniyxon (1410-1510) davlatlarini ko'chmanchi o'zbeklar davlati deb atashgan. Mashhur olim B.V.Lunin qayd etishicha, «O'zbeklar faqat ko'chmanchi chorvadorlardangina iborat bo'lib qolmasdan, ularning orasida Amudaryoning quyi oqimlarida yashagan dehqonlarning ma'lum muddatlarda ekin yerlariga kelib joylashuvi, o'z yerlariga ega bo'lgan qabilalar ham bor bo'lgan»²ligini yozgan.

Shayboniyxon Jo'jixonning birinchi o'g'li, Shaybon urug'idan bo'lgan, ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abduxayrxonning (1412-1468) nabirasi edi. Bolaligida Shayboniyxon va ukasi Mahmud Sulton bilan birga bobosi Abdulxayrxon tarbiyasida bo'ladi. Hofiz Tanish Al-Buxoriy o'zining Abdullanoma asarida Abdulxayrxonni shunday yozgan: "... har ikki sulton zodani aziz tutardi va ularni e'zoz va ikrom qilishni bir daqiqani ham bekor o'tkazmasdi"³. Shayboniyxon Buxoroda madrasada ta'lim oldi, diniy

¹ Ahmedov B. O'zbek ulusi.-Toshkent: Fan, 1992.-240 b

² Лунин Б.В Средняя Азия в научном наследии Отечественного востоковедения - Т. Фан, 1979. с. -145

³ Hofiz Tanish Al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomai shohiy). Birinchi kitob. – T.: "Sharq", 1999. 56-bet.

va dunyoviy ilmlarni egalladi. Buxoroda yashab, tahsil olgan yillarda Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshigina o'rganib chiqdi. Shayboniyxon Dashti Qipchoqqa qaytib borib, qo'shin to'plashga muvaffaq bo'ldi. U o'zining qo'shini bilan Mo'g'uliston, Movaraunnahr hamda Xorazm hukmdorlariga xizmat qilib, ularning qo'shnilariga va ichki raqiblariga qarshi kurashdi.

Bu kurashlarda Shayboniyxon o'zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qildi. U o'zining asosiy maqsadi bobosi davlatini qayta tiklash uchun harakat qildi va Movarounnahr va Xurosonda avj olgan toju-taxt kurashlar Shayboniyxon yurishlari va maqsadini amalga oshirishda qulay imkoniyat edi. Akademik Bo'riboy Ahmedov yozganidek: "Bu toju-taxt uchun va o'zaro feodal kurash Shayboniyxon va ko'chmanchi o'zbeklarning temuriylar ustidan, xususan, Sulton Husayn va uning avlodi ustidan osongina g'alaba qozonishlarini ta'minlagan omillardan biri bo'ldi"⁴. Tarixdan ma'lumki, Muhammad Shayboniyxon Kaspiy dengizidan Xitoy hududigacha, Sirdaryo etagidan Afg'onistongacha bo'lgan ulkan mamlakatni qo'lga kiritdi⁵.

Shayboniyxon hukmronligi o'rnatilishi bilan Movarounnahrda uzoq vaqt davom etgan temuriylar o'rtasidagi o'zaro taxt talashishlarga chek qoyildi va tinchlik o'rnatildi. Bu haqida Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida shunday yozilgan: "... u buyuk va odil podshohning yaxshi rioyasidan ul mamlakatning ishlari tamoman intizom topdi, xavf-xatar g'ubori va manzullardan tamoman ko'tarildi"⁶. Shayboniyxon siyosiy jihatdan markazlashgan davlat tuza olishga erishi bilan o'zining ilm-fan va adabiyotga moyilligi, bu soha vakillarini hurmat qilishi va homiylik qilishi bilan katta hurmatga sazovor bo'ldi.

Shayboniylar davrida davlatning ma'muriy tuzilishi ham o'ziga xos edi. Hokimiyat tepasida xon turardi. Davlatdagi eng oliy hokimiyat xonga tegishli bo'lib, u qabila hamda

⁴ Ahmedov B. O'zbek ulusi.-Toshkent: Fan, 1992.-240 b

⁵ Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – T., 1994 – B. 406–407.

⁶H.T.Al-Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kitob. –Toshkent: "Sharq", 1999. – 57-bet.

urug' boshliqlari tomonidan saylab qoyilgan hamda qonunlar chiqarish, ularning ijrosini nazorat qilish, o'lim jazosi berish vakolatlariga ega edi.

Xonlikning siyosiy tizimida, A.Zamonovning "Buxoro xonligi tarixi" kitobida yozishicha, boshqaruvda Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib-qoidalar, xususiyatlar bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos an'analar ham mavjud edi⁷. Temuriylardan farqi, Muhammad Shayboniy qo'lga kiritilgan yerlarni o'z qarindoshlari, sultonlar va beklarga taqsimlab berdi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun-qoidalariga amal qilingan. Davlatdagi oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladan eng ulug' yoshli shaxsga o'tgan. B.Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi" kitobida bu tartibni dastlabki shayboniylar davrida saqlanib qolgan bo'lsada, XVI asrning 40-yillaridan boshlab vorisiylikda otadan bolaga o'tish an'anasi kuchayishi hamda Abdullaxon II davrida aniq bir shaklga tushganligini yozgan⁸.

Davlat boshqaruvida xon saroyidagi oliy darajali amaldorlar ishtirokida davlatdagi ma'muriy boshqaruvni amalga oshirgan. Davlatni boshqarishda viloyat hokimlari qo'lidagi mahalliy boshqaruv asosiy o'rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar. Ko'p sulolalar davrida bo'lganidek shayboniylar davrida ham eng oliy davlat idorasi-dargoh hisoblangan. Dargoh tepasida xon turgan bo'lib, bu idora saroy devonida jamlangan, oliy darajali amaldorlari a'zo bo'lgan va bosh vazir tomonidan boshqarilib, davlatning ichki va tashqi hayotiga oid barcha masalalarni xususan, siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqqan. Bu yerda qabul qilingan qarorlar dastlab xonning tasdig'i bilangina kuchga kirar va hayotga joriy etilardi. Qarorlar qabul qilishda diniy ulamolarning fikrlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Shayboniylar davlat boshqaruvidagi juda katta vakolatlarga ega bo'lgan muhim vazifalardan biri naqib bo'lib, naqiblik mansabi xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan. Manbalarga ko'ra, rasmiy qabul marosimlarida naqibning oliy hukmdordan chap tomonda birinchi bo'lib joy olishi naqibning dargohdagi yuksak martabasidan dalolat

⁷ Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi, -Toshkent, 2021.- 94 b

⁸ B.Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2012.-256-bet

beradi. Shuningdek, xon tomonidan chiqarilgan farmon va yorliqlarda ham naqibning nomi birinchi bo‘lib zikr etilgan. Naqibga davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Xondamir o‘zining “Habib us-siyar” asarida yozishicha: Harbiy yurishlarni uyushtirish, davom ettirish, dushmanning harbiy imkoniyatlarini o‘rganish yumushlarini ham xon naqibga yuklagan. Harbiy kengashlarda ham naqib mansabidagi shaxs birinchi bo‘lib gapirishga rejasini aytishga haqli bo‘lgan⁹. Shuningdek, hukmdorlar o‘rtasidagi deyarli barcha sulhlar naqiblar ishtirokida amalga oshirilgan. Manbalarga ko‘ra, naqiblarga o‘ta ma’suliyatli bo‘lgan elchilik vazifalari ham yuklatilgan. Naqiblik lavozimiga asosan Shayboniy hukmdorlar payg‘ambar avlodlari hisoblangan sayyidlar xonadoniga mansub shaxslarni tayinlaganlar.

Shayboniylar davlatidagi muhim mansablardan yana biri, xondan keyingi o‘rinda turgan mansab otaliqdir. Bu mansabga tayinlangan shaxs, avvalo, voyaga yetmagan shahzodaning tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan. U xonning murabbiysi, homiysi, maslahatchisi bo‘lish bilan birga birinchi vazirlik lavozimini ham bajargan. Mazkur lavozim egasi shahzodaga otalik qilib, otasining o‘rnini bosadigan darajada tarbiya bergan. Ular xonning shaxzodalarni doimiy nazorat qiluvchi ishonchli kishilari edilar. Otaliqlar shahzodalarga mulk qilib berilgan viloyatlardagi xon hokimiyati siyosatini belgilash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lganlar. Shu sababdan ham shaxzodalar voyaga yetguniga qadar ma’lum viloyatlardagi boshqaruv ishlari asosan otaliqlar ixtiyorida bo‘lgan.

Undan keyin turadigan mansab devonbegi bo‘lib u moliya va soliq ishlarini yuritish bilan shug‘ullangan.

Shayboniylar davrida davlat ishlarida ko‘kaldosh mansabi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ko‘kaldosh (bir onadan sut emgan ma’nosida, ijtimoiy mohiyati rasmiy sulolaning biror bir vakili bilan bir onani emganlikni anglatadi.) butun mamlakatdagi xonning do‘stlari va dushmanlari haqida ma’lumotlar to‘plovchi shaxs bo‘lib, Ko‘kaldosh dargohning eng ishonchli kishilaridan hisoblangan¹⁰. Unga yuklatiladigan vazifalar ham shu qadar nozik va

⁹ G‘iyosiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar/Fors tilidan tarjima, muqaddima muallifi J.Hazratqulov, I Bekjanov-T:O‘zbekiston,2013.-B1204.

¹⁰ Shamsutdinov, R., Karimov, Sh., & Ubaydullaev, O. (2010). *Vatan tarixi* (2-kitob). Toshkent: Sharq.

mas'uliyatli bo'lgan. Mazkur maqomga ega shaxsning vazifasi mamlakatda oliy hukmdor olib borayotgan siyosatning daxlsizligi, unga kishilarning munosabatlari bilan bog'liq yumushlardan iborat edi. Ko'kaldosh naqibdan keyin, ikkinchi bo'lib o'z fikrini aytish huquqiga ega bo'lgan. Abdullaxonning Qulbobo Ko'kaldoshi xususida "Abdullanoma"da quyidagi ta'rifi keltirilgan: "Kimki Qulbobo Ko'kaldoshdek yana ikki kishisi bo'lsa har vaqt uning tirishqoqligi bilan yerning to'rt burchagini olishi mumkin"¹¹.

Parvonachi oliy hukm chiqargan hukmlar, yorliklar va boshqa rasmiy hujjatlarni egalari masullar ijrochilarga yetkazish tadbirlariga parvonachi javobgar bo'lgan¹². Mushrif - xon ma'lum shaxslarga, jumladan, e'tiborli va imtiyozli kishilarga in'om etadigan ashyolarni ro'yxatga olib boruvchi, chet ellik mehmonlarni kutib olish vaqtida ularga to'n kiydiruvchi hamda soliqlar yig'ilishini boshqaruvchi shaxs bo'lgan. Xazinachi -xonning boyligi saqlanadigan xazina boshlig'i. Bu lavozimdagi shaxs ham harbiy yurishlarda xon lashkarida bo'lgan. Va ma'lum ulushlar berish va boshqa vazifalarni bajarishda muhim o'rin tutgan.

Bundan tashqari ba'zi vaqtlarda bu lavozim vakillari harbiy sarkarda vazifasini ham bajargan. Misol uchun, Abdullaxon 1571-yilda Termiz qal'asini egallashda do'st Mirzo xazinachi jangchi bo'linmasi alohida o'rin turganligi keltirilgan¹³. Qushbegi - xonlar va sultonlar shikorga chiqqan paytda ov anjomlarini nazorat qiluvchi shaxs; munshi esa xonning farmonini yozuvchi shaxs bo'lgan. Davlat devonining mamlakatdan chiqish va kirishi, xorijga mol chiqarish-kiritish kabi ruxsatnomalarni berish bo'yicha mutasaddisi ham bo'lgan¹⁴. Shayboniylar davlatida aholidan shikoyat tinglovchi shaxs dodxoh hisoblangan. Miroxo'r lavozimi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib otxona boshlig'i edi, u oliy hukmdorga tegishli yilqi, oy-ulov, ularning ta'minoti kabilarga masul amaldor bo'lib, "Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar" kitobida ular axtabegi deb atalishi yozilgan¹⁵. Bakovul-

¹¹ Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 2-kitob. B-36.

¹² Sagdullayev A.S. Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi tarixi. T. 2006.

¹³ Sardor Bahridin o'g'li Ro'ziyev, Shayboniylar davlatida qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi – Toshkent, 2024. – 36-b.

¹⁴ G'iyosiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar/Fors tilidan tarjima, muqaddima muallifi J.Hazratqulov, I Bekjanov-T:O'zbekiston,2013.-B1204

¹⁵ A. Sagdullayev va boshqalar. Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. –T., 1998.

saroyda xonning bosh oshpazi hisoblangan, harbiy yurishlar davrida qo‘shinni ovqat va maosh bilan ta’minlash ham uning zimmasiga yuklatilgan.

Hofiz Tanish al-Buxoriyning Abdullanoma asarida Abdullaxonning asirlar va harbiylarga qo‘ylarni so‘yib, osh tarqatish, qal’a qamali chog’ida esa bandlar qurish haqida do‘stim bakovul ismli sarkardaga buyruq berilganligi yozib qoldirilgan¹⁶. Davlat boshqaruvida saroy amaldorlardan tashqari, ulamolar, din peshvolari, shayxlar va xo‘jalarning, xususan, shayx-ul-islom, qozi kalon, mufti kabi diniy mansab egalarining ham ta’siri katta bo‘lgan. Ulamolarning bir qismi o‘zlarini Muhammad payg‘ambar avlodlari - sayyidlar deb hisoblagan, bir qismi Muhammad payg‘ambarning choryor xalifalari - Abubakr, Umar, Usmon va Ali avlodlari deb o‘zlarini xo‘jalar deb atashgan.

XVI asrning o‘rtalariga kelib xo‘jalarning obro‘yi nihoyatda oshib ketdi, hatto kimning xon bo‘lishi ham ularga bog‘liq edi. Bu davrda, ayniqsa, Buxoro yaqinidagi Jo‘ybor qishlog‘idan chiqqan xo‘jalarning mavqeyi juda oshib ketdi. Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” kitobida yozilganidek, “... uning homiyligini rag‘bat bilan qabul qilib, itoat bilan boshini bo‘ysunish xalqasiga kiritdi va uning muvofiq ko‘rgan ishidan tashqari chiqmadi”¹⁷ bundan ko‘rinib turibdiki, Shayboniy xonlarining doimo Jo‘ybor xo‘jalariga ixlosi baland, hurmati katta bo‘lgan.

Shunday qilib, XVI asrda shayboniylar sulolasi Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy hokimiyatni qo‘lga olib, markazlashgan davlat barpo etishga erishdi. Muhammad Shayboniyxon faoliyati natijasida temuriylar davridagi siyosiy parokandalik tugatilib, mamlakatda nisbiy barqarorlik yuzaga keldi. Shayboniylar davlati boshqaruvida an’anaviy ko‘chmanchi o‘zbek urf-odatlar hamda islomiy huquqiy meyorlar uyg‘unlashgan holda amal qildi. Ushbu davr boshqaruv tajribasi keyingi o‘zbek xonliklari siyosiy tizimining shakllanishiga muhim ta’sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

¹⁶ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomai shohiy). [(fors tilidan tarj. muallifi Sodiq Mirzaev)]. 1-2-Kitob. – T.: Sharq nash., 1999., 2000

¹⁷ Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kitob. – 76-bet

1. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomai shohiy). [(fors tilidan tarj. muallifi Sodiq Mirzaev)]. 1-2-Kitob. – T.: Sharq nash., 1999., 2000
2. G'iyosiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar/Fors tilidan tarjima, muqaddima muallifi J.Hazratqulov, I Bekjanov-T:O'zbekiston,2013.-B1204
3. Ahmedov B. O'zbek ulusi.-Toshkent: Fan, 1992.-240 b
4. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – T., 1994 – B. 406–407.
5. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi,-Toshkent, 2021.- 94 b
6. B.Eshov “O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2012.-256-bet
7. Sagdullayev A.S. Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi tarixi. T. 2006.
8. A. Sagdullayev va boshqalar. Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. –T., 1998
9. Sardor Bahriddin o'g'li Ro'ziyev, Shayboniylar davlatida qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi – Toshkent, 2024. – 36-b.
10. Lunin B.V Srednyaya Aziya v nauchnom nasledii Otechestvennogo vostokovedeniya - T . Fan, 1979. s . -145
11. Nurqulova R.R. Shayboniy hukmdorlar va jo'ybor xo'jalari. Monografiya. – Toshkent,2024. – 152 bet
12. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000. – 365 b
13. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi. –T : Adolat, 2007. –120 b.
14. Eshov B. Odilov, M. *O'zbekiston tarixi*. Toshkent: Sharq, 2000.
15. Shamsutdinov, R., Karimov, Sh., & Ubaydullaev, O. (2010). *Vatan tarixi* (2-kitob). Toshkent: Sharq.